

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

HAMIDOV ORIFJON JAHONGIROVICH

**SIANOGLIKOZID TUTGAN URUG‘LARNI KOMPLEKS QAYTA
ISHLASHNING KOLLOID KIMYOVIY ASOSLARI VA OLINGAN
MAHSULOTLAR TASNIFI**

**02.00.09 – Tovarlar kimyosi
02.00.11 –Kolloid va membrana kimyosi**

**Kimyo fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon-2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)
Content of the dissertation abstract of doctora of Science (DSc)

Hamidov Orifjon Jaxongirovich

Sianoglikozid tutgan urug‘larni kompleks qayta ishlashning kolloid kimyoviy asoslari va olingan mahsulotlar

tasnifi.....3

Хамидов Орифджан Жахонгирович

Коллоидно-химические основы комплексной переработки семян, содержащих цианогликозиды, и классификация полученных продуктов ...29

Hamidov Orifjon Jahongirovich

Colloidal-chemical bases of complex processing of seeds containing

cyanoglycosides and classification of the obtained products55

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....59

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

HAMIDOV ORIFJON JAXONGIROVICH

**SIANOGLIKOZID TUTGAN URUG‘LARNI KOMPLEKS QAYTA
ISHLASHNING KOLLOID KIMYOVIY ASOSLARI VA OLINGAN
MAHSULOTLAR TASNIFI**

**02.00.09 – Tovarlar kimyosi
02.00.11 – Kolloid va membrana kimyosi**

**Kimyo fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon-2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/K213 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchilar :

Muxiddinov Baxodir Faxriddinovich
kimyo fanlari doktori, professor
Tuxtayev Xakim Raxmanovich
farmatsevtika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdulloyev Obidjon Shaxobidinovich
kimyo fanlari doktori, professor
Abdug'aniyev Baxtiyor Yermaxamatovich
kimyo fanlari doktori, professor
Maxkamov Ravshan Rahimovich
kimyo fanlari doktori, katta ilmiy hodim

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «15» 10 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100 Andijon sh., Universitet ko'cha. 129. Tel.: (99874)223 88 30, faks: (99874) 223 84 33

Dissertatsiyasi bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99874) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33) e-mail: agsu_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «6» 10 da tarqatildi.

(2025 yil «6» 10 № 61 raqamli reyestr bayonnomasi)



Sh.M.Kirgizov
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor
M.M.Mo'minjonov
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik
ilmiy kengash kotibi, k.f.d., dotsent
M.M.Xojimatov
Ilmiy darajalar beruvchi Bir martalik ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
k.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda meva mag‘zilarini chuqur qayta ishlash orqali tibbiyot, veterinariya, kosmetika, oziq-ovqat sanoati va qishloq xo‘jaligining turli yo‘nalishlarida qo‘llaniladigan yangi mahsulotlar va ularni olish texnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada, shaftoli, olxo‘ri, gilos va o‘rik kabi mevalarni qayta ishlash jarayonida hosil bo‘ladigan va chiqindi sifatida tashlab yuboriladigan achchiq urug‘larning kimyoviy tarkibini aniqlash, hamda ularni qayta ishlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham, mazkur meva urug‘lari tarkibida uchraydigan sianoglikozidlarning miqdori va tuzilishini aniqlash asosida biologik faol qo‘shimchalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda dag‘al dispers tizimlardan iborat xom ashyo va tayyor mahsulotlar zahiralarni kengaytirish, ularni qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish hamda kolloid kimyo usullarini qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, moy-suv asosidagi tizimlarda biologik faol moddalarning (BFM) taqsimlanishi, yangi funksional xossalarga ega organik tarkibli preparatlarni yaratish, shuningdek moyli tizimlarda sirt-faol moddalar yordamida emulsiyalar va mikroemulsiyalarning dispersligi hamda barqarorligini boshqarish masalalariga alohida ahamiyat berilib, dorivor o‘simliklarning moyli ekstraktlarini barqaror emulsiyalarga aylantirish, ularning kolloid-kimyoviy xossalarini aniqlash, shuningdek, ushbu xomashyolar asosida moy-suv dispers tizimlarini shakllantirish, ularning fizik-kimyoviy xossalarini boshqarish orqali ekologik toza yangi mahsulotlar olish hamda ularni tasniflash muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda sianoglikozidli urug‘larni chuqur qayta ishlash asosida moy, moydan emulsiyalar, kunjarani spirtli ekstraktlari asosida emulsiya konsentratlari, dorivor o‘simliklarni moyli ekstraktlaridan emulsion mahsulotlar olish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilgan. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida “Iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan hamda mahalliy xomashyo resurslarini ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratish”¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda kimyo sanoatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan sianoglikozidli birikmalarini o‘z tarkibida tutuvchi shaftoli, olxo‘ri, gilos, o‘rik va achchiq bodom kabi urug‘laridan iborat dorivor daraxtlar tabiiy holatda o‘sadi va ularning xom ashyosi katta biofaol potensialga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonning rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmonida va 2020 yil 10 apreldagi PQ-4670-son "Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida" gi Qarori, shuningdek mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-sonli «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni.

vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VII “Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi¹.

Sianoglikozidli o‘simliklardan olingan biologik faol moddalardan (BFM) zararkunandalarga qarshi samarali kurash vositalarini yaratish va ularning tadqiqotiga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida hamda oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Institute of Chemistry, External Circuit Serial Number, University of Ciudad, Mexico Laboratory of Neuropharmacology of Natural Products (Ispaniya), Spain Department of Inorganic Chemistry (Ispaniya), University of Chester (Buyuk Britaniya), Nestle Research Center, (Shvetsariya), Wageningen University and Research (Niderlandiya), Lovely Professional University (Hindiston), Zhengzhou Research Base, University Zhengzhou (Xitoy), Marmara University, Faculty of Pharmacy (Turkiya), Institute for Sustainability and Circular Economy, Texas Tech University (AQSH), M.V. Lomonosov nomidagi MGU (Rossiya), Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon etno-tibbiyot muhandislik va texnologiya markazi, Tojikiston Milliy Fanlar Akademiyasining “Tabiiy mahsulotlarning Xitoy-Tojikiston innovatsion markazi”, O‘zbekiston milliy universiteti, O‘zbekiston Respublikasi FA “O‘simlik moddalari kimyosi” instituti, Bioorganik kimyo institutida olib borilmoqda.

Dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash va qayta ishlash tadqiqotlari natijasida bir qator natijalar olingan: jumladan, o‘simliklarning sianoglikozidlar sintezini, ularning tabiiy himoya mexanizmlaridagi roli aniqlangan (Rothamsted Research, Buyuk Britaniya), o‘simlik va hayvonlarning tabiiy himoya strategiyalari, xususan sianoglikozidlarning ekologik funksiyalarini, ularning zararkunandalarga qarshi ta’sir mexanizmlari aniqlangan (Max Planck Institute for Chemical Ecology, Germaniya), sianoglikozidlarning qishloq xo‘jalik zararkunandalariga qarshi samaradorligi yuqori ekanligi zamonaviy usullarga isbotlangan (University of California, Davis, AQSh), sianoglikozidlarning molekulyar tuzilishi, biosintezi, metabolik yo‘llari va ularning zararkunandalarga toksik ta’sir xususiyatlarini ilmiy asosda isbotlangan (De Montpellier University, Fransiya), sianoglikozidli o‘simliklar asosidagi BFMLarning zararkunandalarga qarshi biologik samaradorligini aniqlanib, ularning ekologik xavfsizligi va potensial qo‘llanilishi bo‘yicha ilmiy asoslari yaratilgan (Chinese Academy of Sciences, Xitoy), sianoglikozidli o‘simliklarning himoya tizimlari, ularning ekstraktlaridan foydalanish texnologiyalari takomillashtirilgan (Wageningen University & Research, Niderlandiya), ayrim mahalliy o‘simlik urug‘lari tarkibidagi birikmalarning tarkibi va tuzilishi aniqlangan (O‘simlik moddalar kimyosi instituti, O‘zbekiston).

²Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi www.elsevier.com, www.isser.rssi.ru, www.cilbrary.com, www.edunews.ru, <https://scholar.google.com/>, www.fundamentalresearch.ru va boshqa axborot manbalar asosida tayyorlandi.

Dunyoda sianoglikozidli o'simliklardan olingan BFMLar asosida ekologik xavfsiz va yuqori samarali tabiiy pestitsidlar ishlab chiqarish yo'nalishida bir qator ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, jumladan: akaritsid xossalini emulsiya konsentratlari texnologiyasini yaratish; ularning sifat ko'rsatkichlarini baholash; yaroqlilik muddati va fizik-kimyoviy barqarorligini aniqlash; shuningdek me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, tasdiqlash va ishlab chiqarish korxonalariga joriy etish; global miqyosda kimyoviy pestitsidlar o'rnini bosuvchi, xavfsiz va samarali alternativ vositalarni yaratish; o'simliklar tarkibidagi turli biologik faollikka ega bo'lgan flavonoidlarni aniqlash va ajratib olish; oziq-ovqat mahsulotlarini tarkibida makroelementlar saqlagan o'simlik ekstraktlari bilan boyitish; shifobaxsh o'simlik konsentratlari va ekstraktlari yordamida ayrim yurak-qon tomir, asab tizimi kasalliklarini davolash va oldini olish; shifobaxsh o'simliklardan ajratib olingan tabiiy birikmalar asosida oziq-ovqat qo'shilmalari olish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tarkibida amigdalin moddasi tutgan urug'lar to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar buyuk sharq tabibi Abu Ali ibn Sino ilmiy me'rosida keng yoritilgan. Shuningdek dunyo miqyosida sianoglikozidli urug'laridan BFMLar, ular asosida turli dispers sistemalar va emulsiyalar olishga, kolloid-kimyoviy xossalarni o'rganishga K.Shinoda, T.Okarawa, F.Leal-Calderon, Zhong Zhao, A.A.Abramzon, A.I.Tensova, V.A.Vaynshteyn, I.F.Belokon, va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bag'ishlangan.

Mamlakatimiz olimlaridan A.U. Umarov, A.K. Tadjiyev, K.S.Sodikov, E.A.Aripov, S.N.Aminov, U.K.Axmedov, T.M.Maxmudov, Z.A.Nazarova, X.R.Tuxtayev, I.R.Asqarovlar turli mevalar urug'laridan moy, moyli ekstraktlar, emulsiyalar olish, dag'al dispers sistemalar hosil qilish, olingan mahsulotlarning kolloid-kimyoviy xossalarni aniqlash, shuningdek sianoglikozidli urug'lardan ajratilgan moylar, ularning kunjarasi tarkibini aniqlash, xossalarni o'rganish, urug'i tarkibidagi amigdalin miqdorini kamaytirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan va muhim ilmiy natijalar olishgan.

Tarkibida sianoglikozidlar tutgan o'simliklarni urug'larini chuqur qayta ishlash amalga oshirilmagan. Urug'lar mag'zini chuqur qayta ishlanishi orqali moy, kunjara, spirtli ekstrakt hamda ularning qayta ishlash mahsulotlari olinishi mumkin. Mag'zlar tarkibidagi amigdalin miqdorini ekstraksiya usullari orqali oshirish va ularning miqdorlarini belgilash yuzasidan tadqiqotlar yetarli emas. Mag'zlardan ajratib olingan moylar turli o'simlik xomashyolarini ekstraksiya qilishi va ular asosida SFMLar yordamida emulsiyalar olish tadqiq qilinmagan. Eng muhimi urug'lar tarkibidagi amigdalin ekstraktlar holatida kukun, emulsiya va konsentrlangan emulsiyalar olish usullari ishlab chiqilmagan. Tarkibida sianoglikozidlar tutgan ekstraktlar, emulsiyalar va konsentrlangan emulsiyalar zaharli moddalar bo'lgani uchun chorva mollaridagi infeksiyon kasalliklar chaqiruvchi kanalarga qarshi veterinariya preparatlari tayyorlash to'g'risidagi tizimli tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Sianoglikozidlar urug'larining qayta ishlash mahsulotlarining (moylar, kunjara va ekstraktlar, emulsiyalar, konsentrlangan emulsiyalar) standartlanishi va sertifikatlashi yuzasidan tizimli tadqiqotlar olib borilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy talim muassasi ilmiy - tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti hamda Toshkent farmatsevtika institutlarining ilmiy tadqiqot ishlari rejaloriga muvofiq “Mahalliy xomashyolarni qo‘llab, dori vositalar, koordinatsion birikmalar yaratish va yakunlangan tadqiqotlar bo‘yicha innovatsion faoliyat yuritish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sianoglikozidli urug‘lardan ajratilgan moylarni standartlashtirish, moy va moyli ekstraktlardan emulsiyalar tayyorlashning kolloid-kimyoviy asoslarini ishlab chiqish, kunjarasidan BFMLarni olish, ular asosida qishloq xo‘jaligi uchun tovarlar ishlab chiqish hamda ularni kimyoviy tarkibi asosida (TIF TN bo‘yicha) tasniflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sianoglikozidli urug‘lardan sovuq presslash usulida ajratilgan moylarning tarkibini o‘rganish, ularning saqlanish muddatini aniqlash va standartlashtirish jarayonlarini amalga oshirish, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida mahsulot sifati hamda xavfsizligini ta‘minlaydigan muvofiqlikni baholash hamda sertifikatlashtirish;

dorivor o‘simlik (qariqiz ildizi) hamda achchiq bodom moyi asosida moyli ekstraktlar olish, ularning tarkibi va fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish, shuningdek ushbu ekstraktlardan emulsiyalar tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish;

sianoglikozidli kunjaralardan spirtli ekstraktlar ajratishning prinsiplar texnologiyasini ishlab chiqish hamda olingan ekstrakt eritmalarining kolloid-kimyoviy xossalarini o‘rganish;

import o‘rnini qoplash maqsadida mahalliy xomashyo – sianoglikozidli urug‘larni spirtli ekstraktlari asosida insektoakaritsid emulsiya konsentratlar olish texnologiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

insektoakaritsid emulsiya konsentratlarini ishchi eritmalarining sifat ko‘rsatkichlari hamda fizik va kolloid-kimyoviy xossalarini o‘rganish, shuningdek ularni hayvonlarda yuqumli kasalliklar chaqiruvchi kanalariga qarshi vosita sifatida tavsiya etish;

olingan insektoakaritsid mahsulotlarni ekspertizasi hamda ularni Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi (TIFTN) bo‘yicha tasniflash;

kunjaralar tarkibidagi oqsillar (erkin aminokislotalar), uglevodlar, suvda eriydigan vitaminlar, biometallar tarkibini va miqdorini aniqlash, ularning ozuqaviy qiymatini baholash hamda chorva uchun biologik faol qo‘shimcha (BFQ) sifatida tavsiya etish;

olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida ilmiy texnikaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida achchiq bodom (*Amygdalus communis L.*) urug‘i, yovvoyi bodom (*Amygdalus nana*), shaftoli (*Persica vulgaris Mill.*) urug‘i, achchiq o‘rik (*Prunus Mill.*) urug‘i, olxo‘ri (*Prunus domestica L.*) urug‘i, gilos (*Prunus cerasus*) urug‘i va ushbu urug‘lar moyi, kunjarasi va spirtli ekstraktlari,

emulsiyasi, hamda moylar va dorivor o'simliklar qariqiz ildizi asosidagi moyli ekstraktlar va ularning emulsiyalari olingan.

Tadqiqotning predmeti sianoglikozidli urug'lar, moylari, ulardan moyli ekstraktlar olish va moyli ekstraktlarni emulsiyaga aylantirish usullari, kunjaralarini spirtli ekstraktlari va SFM ishtirokida akaritsid emulsiya konsentratlari tayyorlash, ularning xossalari tadqiq etish, dag'al dispers sistemalarni hosil qilish tashkil etishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kimyoviy, fizik-kimyoviy (masspektrometriya, gaz-xromato-masspektrometriya, suyuqlik xromatografiya, refraktometriya, turbidimetriya) va kolloid-kimyoviy (dispersiologik, mikroskopik, konduktometrik) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sovuq presslash usuli bilan olingan moylarning tarkibi va fizik-kimyoviy xossalari asosida ularning GOCT 30306-95 talab standartiga mos kelishi isbotlangan;

Ilk bor YuSSX yordamida mahalliy sianoglikozidli urug'larni sovuq presslash usulida olingan moylar tarkibida amigdalin miqdori 0,111 mg/l dan 0,936 mg/l gacha mavjudligi va bu moylar amigdalin miqdorini kamaytirmasdan ozuqa sifatida foydalanish mumkin emasligi isbotlangan;

sianoglikozidli kunjaralarni chuqur qayta ishlash asosida spirtli ekstraktlar ajratib olingan va bu BFMni insektoakaritsidlar sifatida qo'llash mumkinligi ilmiy asoslangan;

kunjaralar tarkibida oqsillar (erkin aminokislotalar), uglevodlar va suvda eriydigan vitaminlar mavjud bo'lib, ularning ozuqaviy qiymatlari yuqoriligi isbotlangan;

sovuq presslash usuli yordamida ajratilgan moylar asosida, anionaktiv va noionogen SFMlar ishtirokida barqaror emulsiyalar olish texnologiyasi hamda ularning kolloid-kimyoviy asoslari ishlab chiqilgan;

achchiq bodom moyi asosida dorivor o'simliklar (qariqiz ildizi) moyli ekstraktlarini olish va ularga turli SFMlar qo'shish yo'li bilan emulsiyalarga aylantirish sharoitlari aniqlangan;

moysizlantirilgan sianoglikozidli kunjaralardan 96 % etanol asosida ekstrakt ajratib olishning prinsipial texnologiyasi ishlab chiqilgan, hamda olingan ekstraktlarning suvdagi eritmalarini kolloid-kimyoviy xossalari aniqlangan;

sianoglikozidli kukunlarning spirtli ekstraktlari asosida emulsion konsentratlari olinib, ulardan ishchi eritmalar tayyorlangan va emulsiyalarning kolloid-kimyoviy xossalari aniqlangan;

insektoakaritsid emulsiyalarda yuqori konsentratsiyada suv-moy tizimlari (II tur emulsiya) hosil bo'lib, ularning akaritsidlik xossalari yuqori bo'lishi va konsentratsiya kamayganda esa moy-suv emulsiyasi (I tur) shakllanib, bunda akaritsidlik xossalarining pasayishi isbotlangan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sianoglikozidli urug'larni sovuq presslash usuli bilan moyi ajratib olingan, tarkibi o'rganilgan va standartlashtirilgan, ularning moyli ekstrakti va ulardan barqaror emulsiyalar olish usuli ishlab chiqilgan;

sianoglikozidli kunjaralarni qayta ishlash orqali ularning spirtli ekstraktlari va ulardan veterinariya amaliyotida qo'llash uchun insektoakaritsidlar olish usullari ishlab chiqilgan;

hayvonlarda yuqumli kasalliklarni tarqatadigan kanalarga qarshi sianoglikozidli kunjaralar asosida murakkab tarkibli dispers insektoakaritsid tarkiblari yaratilgan;

olingan insektoakaritsid konsentratlarning tashqi iqtisodiy faoliyat uchun mo'ljallangan tovarlar nomenklaturasiga asosan tovar kodi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Statistika tahlil usullari yordamida tekshirilgan, shuningdek fizik-kimyoviy, texnologik, kolloid-kimyoviy tekshirish usullari natijalari, hamda olingan mahsulotlar tajribalarda sinovdan o'tganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sianoglikozidli urug'lardan sovuq preslash usulida moy ajratib olish, ajratib olingan moy va dorivor o'simliklar asosida moyli ekstrakt, kunjaralaridan BFMLar ajratib olish jarayonlari va ular asosida emulsiyalar va mikroemulsiyalar hosil qilish jarayonlari, kimyoviy, fizik-kimyoviy, kolloid-kimyoviy va texnologik tadqiqotlarini o'tkazish va asosiy qonuniyatlarini aniqlash, kunjaradan ajratib olingan sianoglikozidlarning yuqori insektoakaritsid xususiyatining aniqlanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sianoglikozidli urug'lar va ularning kunjaralari asosida yuqumli kasalliklar chaqiruvchi kanalarga qarshi insektoakaritsidlar, konsentrlangan emulsiyalar olish texnologiyasi va maqbul zararsizlantirish vositalari yirik fermer xo'jaliklari va klasterlarda joriy qilishga hamda yangi ishlab chiqilgan tovar kodlari tabiiy sianoglikozidlar asosida ishlab chiqarilgan insektoakaritsidlarni bojxona amaliyotida sinflashni qulaylashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Urug'ida sianoglikozid tutgan mag'zlarni kompleks qayta ishlash texnologiyasi va olingan mahsulotlarni tasnifi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

emulsiya hosil qilish uchun insektoakaritsid konsentrat uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan ixtiro patenti olingan (№ IAP 07357, 15.12.2020 y.). Natijada achchiq bodom mag'zi asosida emulsiya hosil qilish uchun insektoakaritsid konsentratini olish imkoniyati yaratilgan;

akaritsid tarkib uchun O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan ixtiro patenti olingan (№ IAP 7859, 17.05.2021 y.). Natijada achchiq bodom mag'zi va SFM ishtirokida kukun holatidagi insektoakaritsid preparatlari yaratilgan;

sianoglikozidli mag'zlar asosida olingan insektoakaritsidlar Surxondaryo viloyatining Denov tumanida fermer xo'jaliklarida qora mol va mayda shoxli hayvonlarni dezinfeksiyalashda amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasining 2025 yil 20 iyundagi 03/23-1807-son ma'lumotnomasi). Natijada, qora mol va mayda shoxli hayvonlarning kana bilan zararlanishi 85 % kamayishini imkonini bergan;

sianoglikozidli mag‘zlar asosida olingan insektoakaritsidlar “Elektrokimyozavod” AJ QKning “2026-2027 yillarda amaliyotga joriy etilish bo‘yicha istiqbolli ishlanmalar ro‘yxati”ga kiritilgan (“Elektrokimyozavod” AJ qushma korxonasi 2024 yil 20 maydagi 32-son ma‘lumotnomasi). Natijada, hayvonlarning kana bilan zararlanishi 85 % kamayish imkonini beradi;

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta xalqaro va 6 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 30 ta ilmiy ish chop etilgan bo‘lib, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, shundan 8 ta Respublika va 5 xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, yettita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalarni o‘z ichiga oladi. Dissertatsiya ishi 200 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va unga bo‘lgan talab, tadqiqot maqsadi va vazifalari asoslangan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga qo‘llanilishi bo‘yicha tavsiyalar, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sianoglikozidli mag‘zlarni chuqur qayta ishlash orqali mahsulotlar olisning kolloid kimyoviy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida gilos, olxo‘ri, yovvoyi bodom, shaftoli, achchiq bodom va o‘rik mevalarini qayta ishlash mahsulotlari to‘g‘risida ma‘lumotlar berilgan. Barcha sianoglikozidli moylarni tavsifi berilib, emulsiyalar olishga kerak bo‘ladigan SFMLar tavsifi va ularning xossalari yoritilgan. O‘simliklar moylari va ekstraktlarining emulsiyalarga aylantirish imkoniyatlari va moyli ekstraktlarning umumiy tavsifi, qo‘llanilishi, ularni standartlash muammolari o‘rganilgan. Dispers tizim mahsulotlarining tovarlar kimyosidagi o‘rni va hozirgi holati haqida ma‘lumotlar berilgan. Dissertatsiya ishining mavzusi bo‘yicha xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning patent va chop etilgan ilmiy ishlarining tanqidiy tahlili va muhokamasi asosida ushbu tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllangan.

Dissertatsiyaning **“Sianoglikozidli urug‘larning moylari, kunjaralari va ular asosida olingan ekstraktlarning tarkibi hamda tuzilishini fizik-kimyoviy usullar bilan tadqiq etish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotda foydalanilgan kimyoviy birikmalar, xomashyolar, ularning olinishi va tozalash hamda o‘tkazilgan tadqiqotlarning uslublari berilgan. Tadqiqotlarda O‘zbekiston Respublikasi Navoiy viloyati Nurota va Xatirchi tumanlarida 2022-2024 yillarda yetishtirilgan sianoglikozidli urug‘lardan foydalanilgan. Bunda achchiq bodomning

(*Amygdalus communis* L.) va yovvoyi bodom (*Amygdalus nana*) navlaridan, shaftoli, gilos, olxo‘ri, o‘rik urug‘lari ishlatilgan.

Sianoglikozidli urug‘larni sovuq presslash usulida olingan moylarning yog‘ kislotalar tarkibini xromatografik usulda, element tarkibini aniqlash induktiv bog‘langan plazmali mass-spektrometriya usullarida amalga oshirilgan. Shuningdek asosiy fiziko-kimyoviy kattaliklari va mikrobiologik tozaliklari aniqlanib, standartlangan. Moysizlantirilgan kukunlarning asosiy tarkibini tashkil qiladigan oqsillar (erkin aminokislotalari), suvda eriydigan vitaminlar, uglevodlar va amigdalin miqdorlarini aniqlash YuSSX-MS hamda kimyoviy usullar yordamida amalga oshirilgan. Kukunlarni element tarkibini aniqlash induktiv bog‘langan plazmali mass-spektrometriya usuli yordamida aniqlangan.

Dissertatsiyaning “**Sianogen glikozidlari mavjud moylar va ularning kunjaralari tarkibi**” deb nomlangan uchunchi bobida sianoglikozidli urug‘larni sovuq presslash usulida 28,6 dan 39,8 % gacha moylari ajratilgan. Olingan moylarini element tarkibi tahlil qilinib, unda 23-26 xil elementlar mavjudligi aniqlangan. Moylarning yog‘ kislotalarini tarkibi va miqdori tahlil qilinib, unda to‘yinmagan yog‘ kislotalar miqdori barcha moylarda yuqori ekanligi ko‘rsatilgan.

Moylarning asosiy fiziko-kimyoviy xossalari 1-jadvalda keltirilgan. Moylarning son ko‘rsatkichlarini (kislota soni, sovunlanish soni, yod soni va refraksiya soni) aniqlash natijalari orqali moylarning sifatligi aniqlangan. Olingan natijalarga ko‘ra moylarning fizik-kimyoviy xossalarini tekshirish ularning bir-biriga yaqinligini ko‘rsatdi.

1-jadval.

Moylarning fizik-kimyoviy konstantalari

Ko‘rsatkichlari	AB	Shaftoli	Olxo‘ri	O‘rik	Gilos
Kislota soni	0,29	0,41	0,39	0,38	0,44
Sovunlanish soni	196,69	195,17	194,72	196,43	194,83
Yod soni	100,02	99,87	99,97	100,84	100,51
Refraksiya soni, nd^{20}	1,4737	1,4734	1,4735	1,4734	1,4737
Zichligi, g/sm^3	0,918	0,922	0,921	0,921	0,920

Moylarning tarkibi mikroorganizmlar bilan zararlanishi mumkinligini hisobga olingan. DF XI asosida moylarning mikrobiologik tozaligi bo‘yicha me‘yoriy hujjat talablariga to‘la mos kelishini ko‘rsatdi.

Amigdalin miqdori yuqori samarali suyuqlik xromatografiya (YuSSX) bilan aniqlandi. Moy tarkibidagi amigdalin 96 % li etanol bilan ikki marta ekstraksiya qilib ajratib olindi. Qattiq faza sifatida Shim-pack GIST-HP C₁₈ 250x4,6 mm 5 μm C₁₈ (Shimadzu Yaponiya) rusumli kolonkadan foydalanib, namunalar tarkibidagi amigdalin miqdorini aniqlashda YuSSX usuli (55/45, atsetonitril/suvda oqim tezligi 0,5 ml/minda termostat harorati 40 °C da 215 mn to‘lqin uzunligidan foydalanib LC 2030 C 3D Plus qurilmasi yordamida tahlillar o‘tkazildi. Olingan natijalar 2 jadvalda keltirilgan.

Sianglikozidlar tutgan moylardagi amigdalinni aniqlash natijalari

Nomi	Diapazon	Balantlik	Konsentratsiya, mg/kg
Achchiq bodom	6195570	411944	0,548
Yovvoyi bodom	1173966	56514	0,761
Shaftoli	8641670	373988	0,430
Achchiq o`rik	4845057	323233	0,111

Natijalarga ko'ra sovuq presslash asosida olingan moylar tarkibida amigdalin miqdori 0,1110 mg/l dan 0,761 mg/l gacha borligi aniqlandi. Bu moylar amigdalin miqdorini kamaytirmasdan ozuqa sifatida foydalanish mumkin emasligini ko'rstadi. Lekin moylar tarkibidagi amigdalin miqdori yuqori bo'lgan achchiq bodom, yovvoyi bodom hamda shaftoli moylari farmatsevtika va kosmetikada xom ashyo sifatida foydalanishga tavsiya etilishi mumkin.

Mahalliy dorivor o'simliklar xomashyolari – achchiq bodom moyi va qariqiz ildizi asosida moyli ekstraktlar olindi. Ularning tarkibidagi yog' kislotalarining miqdori o'rganildi. Unga ko'ra achchiq bodom moyida asosiy to'yinmagan kislotalardan olein kislotalari 74.32 % ni tashkil qilsa, ekstraktda 71.66 % gacha kamayganligi aniqlandi. Linolen kislotalari bo'lsa, 17.96 % dan 19,55 % gacha oshganligini ko'rsatdi. To'yingan kislotalardan achchiq bodom moyida palmitin kislotalarining miqdori 5,55 % ni tashkil qilsa, qariqiz moyli ekstraktda 5,77 % ni, va palmitolein kislotalari 0.46 % dan 0,45 % ga o'zgarganligi aniqlangan. Tahlil natijalariga ko'ra, achchiq bodomdagi qariqiz ildizining moyli ekstraktida to'yinmagan kislotalarning umumiy miqdori 91.21 % ga kamayganligi, to'yingan kislotalarning umumiy miqdori 1.61 % ga oshganligi aniqlandi. Qariqiz ildizi moyli ekstraktidagi o'zgarishlar dorivor o'simlik tarkibining ta'siri bilan tushuntirilishi mumkin. Achchiq bodom moyi asosida mahalliy dorivor o'simliklar (tirnoqgul gullari va mavrak barglari) xomashyolarini moyli ekstraktlari ustida ham tadqiqotlar olib borilgan.

Moysizlantirilgan kunjaralarni asosiy tarkibini tashkil qiladigan oqsillar (erkin aminokislotalar), suvda eriydigan vitaminlar, uglevodlarning tarkibi va miqdori tahlil qilinib, unda 14 % dan 22 % gacha oqsil hamda 1.99 dan 1.32 % gacha uglevodlardan tashkil qilishi aniqlangan.

Sianoglikozidli kukunlar tarkibida amigdalin miqdori kimyoviy usullar yordamida tahlil qilingan. Natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

Kukunlar tarkibida amigdalin moddasini yuqoriligi yovvoyi bodomda (3.83 %) kuzatildi. Keyingi o'rinlarda amigdalin glikozidini miqdori achchiq bodom va shaftoli kukunlarida 3.24 va 3.17 % ni tashkil etadi. Olxo'ri va gilos kukunlarida bu ko'rsatkich ancha past ekanligini ko'rish mumkin. Tahlil natijalarida kukunlar tarkibidagi amigdalin moddasini miqdori o'simlikni yashash sharoiti, navi va mintaqasiga bog'liqligini ko'rsatdi.

Moysizlantirilgan kunjaralar tarkibidagi amigdalin miqdori

Namunalar	Optik zichlik*	C %, NaCN mg/dm ³	Amigdalin miqdori, %
Achchiq o'rik	0,10727	0,1231	2,91
Shaftoli	1,161	1,359	3,17
Olxo'ri	0,604	0,72	1,68
Gilos	0,339	0,403	1,08
Yovvoyi bodom	2,844	3,4	3,83
Achchiq bodom	1,106	1,381	3,24

*Kunjara ishqor bilan ishlanganda olingan eritmaning optik zichligi.

Dissertatsiyaning **“Sianoglikopzidli moylarning ekspertizasi, tashqi iqtisodiy faoliyat tavarlar nomenklaturasi bo'yicha tasniflanishi hamda sovuq presslash usulida ajratilgan moylarni sifatini baholash va standartlashtirish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida keltirilgan sovuq presslash usuli ajratilgan, ekologik toza va sifatli o'simlik moylari olishning afzal usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda sianoglikozidlarni o'z ichiga olgan o'simlik urug'lari ishlatilganda, mahsulot sifati va xavfsizligini baholash hamda standartlash muhim bosqich hisoblanadi. Sianoglikozidlar – sianid kislotani ajratish xususiyatiga ega bo'lgan tabiiy birikmalar bo'lib, ularga o'simliklarda himoyalani uchun kerak bo'ladi. Ushbu jarayon asosan moy tarkibidagi sianogen birikmalarni aniqlash, ularning konsentratsiyasini standart me'yorlarga muvofiqligini tekshirish va sifat kafolatlarini belgilashni o'z ichiga oladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda sianoglikozidli moylar tasnifi xalqaro savdo, bojxona operatsiyalari va statistik ma'lumotlarni yig'ish uchun muhim hisoblanadi. Ular tarkibidagi sianoglikozid miqdori sababli alohida sifat va xavfsizlik me'yorlariga muvofiqligi talab etiladi.

Sovuq presslash usulida olingan (harorat 40-50°C dan oshmasligi lozim) rafinatsiyalanmagan (yirik va mayda qattiq zarrachalardan tindirish yuli bilan tozalangan) moylarning tajriba namunalari “UzTest” DM Navoiy filiali laboratoriyasida sinovdan o'tkazildi. Mahsulotning MH bo'yicha sinovi: GOCT 30306-95 4.2.1; 4.4.2 bandlari bo'yicha amalga oshirildi.

Mahsulotning MH bo'yicha sinov usuli: GOCT 5472-50; GOCT 5476-80; GOCT 26593-86; GOCT 3900-85; GOCT 31933-2012; GOCT 5478-2014; GOCT 5482-90; GOCT 31747-2012; O'z DSt 1193:2014; GOCT 26927-86; GOCT 26928-86; GOCT 26930-86; GOCT 26931-86; GOCT 2693286; GOCT 26933-86; GOCT 26934-86; O'z DSt 1202:2015. Natijalar 4 va 5-jadvallarda keltirilgan.

Sianoglikozidlar toksikligi va ularning inson salomatligi uchun xavf darajasini baholashda moylarning tarkibida xalqaro standartlarga mos keladigan sianoglikozidning maksimal darajasi: ≤ 0.5 mg/kg (xalqaro oziq-ovqat kodeksi talablariga muvofiq) talab qilinadi.

Moylarning sifat ko'rsatkichlarini me'yor hujjati bo'yicha talablariga mosligi

Sinov ob'yehtiga qo'yilgan talablar	Me'yor hujjati bo'yicha talab (MH)	Haqiqiy qiymati	Talablar muvofiqligi
Tashqi ko'rinishi	Och jigar rangli, o'ziga xos hidli, quyuq moysimon shaffof suyuqlik	Och jigar rangli, o'ziga xos hidli, quyuq moysimon shaffof suyuqlik	Mos keladi
Hidi va ta'mi	Bodom moyi turiga xos hidli, begona ta'm	Bodom moyi turiga xos hidli, begona ta'm	Mos keladi
Eruvchanligi	Erishi*	Erishi*	Mos keladi
Namlik va uchuvchan moddalar 105 °C da, ko'p emas	0,2 foiz	0,1	Mos keladi

*Geksan, dietil efir, izopropil spiriti, benzolda oson eriydi. Etil spiriti va suvda amalda erimaydi.

Achchiq bodom moyining sifat ko'rsat kichlarini aniqlash natijalari

Sinov ob'ektiga qo'yilgan talablar	Me'yor hujjati bo'yicha talab (MH)	Haqiqiy qiymati	Talablar muvofiqligi
Kislota soni, mg KOH/g	2,0	0,29	Mos keladi
Yod soni	90-130	100,02	Mos keladi
Refraksiya soni, n_{D20}	1,4730- 1,4738	1,4677	Mos keladi
Sovunlanish soni	180-220	196,69	Mos keladi
Zichligi, g/sm ³	0,917- 0,934	0,918	Mos keladi
Linol va olein kislotalari	10-30 va 60-80	17,96 va 74,32	Mos keladi
Mikrobiologik tozaligi	XI DF 1t.191b. asos	Mos keladi	Mos keladi
Og'ir metallar miqdorini tahlil natijalari			
Hg mg/kg	0,03	0,00842	Mos keladi
Fe, mg/kg	5,0	0,00046	Mos keladi
Pb, mg/kg	0,1	0,01883	Mos keladi
Cd, mg/kg	0,05	0,00009	Mos keladi
As, mg/kg	0,1	0,00036	Mos keladi
Cu, mg/kg	0,4	0,04758	Mos keladi

Sovuq presslash usulida ajratilgan moylarning turg'unligi tabiiy usulda o'rganildi. Ular 24 oy davomida o'z xossalarini o'zgarmaganligini inobatga olib, ularning saqlanish muddatlari 2 yil deb belgilandi.

Bunday sovuq presslash usulida olingan siyanoglikozidli moylar yuqori biologik qiymatga ega bo'lganligi sababli ko'plab rivojlangan davlatlarda asosan kosmetika va farmatsevtika sanoatlarida teri kasalliklarini davolashda va parvarish qilishda massaj moylari sifatida ishlatiladi.

Dissertatsiyaning “**Sianoglikozidli urug'lardan dispers sistemalar olish va ularning kolloid kimyoviy xossalari o'rganish**” deb nomlangan bechinchi bobida sianoglikozidli urug'lar tarkibidagi moy ajratib olingandan so'ng, qolgan kunjaralar past hidli jigarrang massa hisoblanadi. Sianoglikozidli kunjaralarning quritishda vazn yo'qotishi aniqlandi. Ekstraktiv moddalarni 96 % etanol yordamida ajratib olishda 30-40 daqiqa davomida ekstraksiya qilinib, 24 soat mobaynida matseratsiya amalga oshirilgan. Spirt va kunjara nisbati 1:10 teng bo'lgandagi unumlari hisoblangan. Sianoglikozidli kunjaralarni spirtli ekstrakti asosida olingan kukunlar tarkibidagi amigdalin miqdori kimyoviy usulda aniqlangan. Natijalar 6-jadvalda keltirilgan.


Sianoglikozidli kunjaralarni quritishda vazn yo'qotish $5,2 \pm 0,25$ % dan $6,5 \pm 0,25$ % oralig'ini tashkil qildi. Ekstraktiv moddalarni ajratish etanoldan foydalanganda (ekstrakt va kukun nisbati 1:10) bunda unum $9,8 \pm 0,25$ % dan $13,8 \pm 0,25$ % oralig'ida ajralib chiqdi. Amigdalin miqdori moysizlantirilgan kunjaralarda 1,08 dan 3,83 % oralig'ini tashkil qilgan bolsa, spirtli ekstrakt tarkibida 10,6 dan 30,2 % oralig'ini tashkil etdi.

6-jadval.

Sianoglikozidli kunjaralarning texnologik xossalari

Mahsulotlar	Quritishda vazn yo'qotish, %	Ekstraktsiyada hosil moddalar unumi, %	Amigdalin miqdori, %	
			Moysizlantirilgan kukun tarkibida	Spirtli ekstrakt tarkibida
Shaftoli	$5,7 \pm 0,25$	$13,5 \pm 0,25$	3,17	23,5
Olxo'ri	$6,4 \pm 0,25$	$9,8 \pm 0,25$	1,68	17,2
Gilos	$6,1 \pm 0,25$	$10,2 \pm 0,25$	1,08	10,6
Achchiq o'rik	$5,2 \pm 0,25$	$13,8 \pm 0,25$	2,91	21,1
Yovvoyi bodom	$5,8 \pm 0,25$	$13,8 \pm 0,25$	3,83	30,2
Achchiq bodom	$6,5 \pm 0,25$	$10,5 \pm 0,25$	3,24	27,6

Sianoglikozidli kunjaralardan spirtli ekstraktlar olish texnologiyasini ishlab chiqish. Urug'ida sianoglikozid tutgan mag'zlarni moysizlantirish usuli (presslash uskunasini) yordamida moyi ajratib olindi. Ajralib chiqqan kunjaralar tegirmon yordamida maydalanib, kukun holatiga keltirildi. Ekstraksiya jarayonini amalga oshirish uchun kukunlar ekstraktorga yuborildi. Kukun va spirt (96 %) 1:10 nisbatda ekstraktorda 40 daqiqa davomida $70-75^{\circ}\text{C}$ qizdirilgan holatda aralastirgich yordamida aralastirilgandan so'ng, vakumli nasos bilan filtrlandi. Olingan ekstrakt yomg'irli reaktor yordamida oz miqdorda qoldiq qolguncha haydaldi va quritish uskunasiga yuborildi. Spirtli ekstrakt ajratishning texnologik sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Spirtli ekstrakt olishning prinsipial texnologik sxemasi.

1-moysizlantirish ustuni (press aparat); 2-xomashyoni maydalash uchun tegirmon; 3-ekstraktor; 4-filtr, 5-yomg'irli reaktor; 6-quritish ustuni.

Kukunlar suvda eritilganda oqish loyqa shaklidagi dispers sistemalar hosil qilib, insektoakaritsid xususiyatini yuzaga keltiradi. Asosiy ta'sir etuvchi modda amigdalin deb hisoblanadi. Kukunlarning suvdagi 1 % eritmasi tayorlanib, ular filtdan o'tkazildi va eritmalarning xossalari organildi. Olingan eritmalari insektoakaritsid xossaga ega bo'lib, ko'rinishi oqish-kolloid. Eritmalarning turbidimetrik usulda loyqalanish darajasiga asoslanib, dispers faza zarrachalar o'lachamlari hisoblangan. Eritmaning elektr o'tkazuvchanligi, nisbiy qovushoqligi, pH qiymati va zichliklari aniqlangan. Natijalar 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval.

Sianoglikozidli kukunlardan olingan spirtli ekstraktlarning 1 % eritmalarini fiziko- kimyoviy xossalari

Aniqlangan ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymatlar		
	ShE	YBE	ABE
DSLarning loyqalanishi. τ , NTU	49,8	50,76	42,74
Faza zarrachalar o'lchami. Nm	57,2	62,23	55,33
Qovushqoqligi. 20°C η_{sol}	0,016	0,015	0,016
Elektr o'tkazuvchanligi. $\text{OM}^{-1} \cdot \text{cm}^{-1}$	320	239	267
pH qiymati	5,78	5,126	5,128
Zichligi g/cm^3	0,985	0,988	0,987

YBE-yovvoyi bodom kukunining spirtli ekstrakti; ABE-achchiq bodom kukunining spirtli ekstrakti; ShE-Shaftoli kukunining spirtli ekstrakti;

Kunjaralarning spirtli ekstraktlari suvdagi eritmalari uchun turli konsentratsiyalarda eritmalar tayyorlanib, ularning sirt tarangliklari o'lchandi. Natijalarga ko'ra eritmalarda sirt taranglik konsentratsiyalar ortishi bilan sirt taranglik kamaydi (2-rasm). Spirtli ekstraktlar eritmasining insektoakaritsid ta'siri adsorbsion mexanizm bilan borishini taxmin qilish mumkin. Spirtli ekstraktlarning suvdagi eritmalari uchun adsorbsiya izotermasi diagrammasi tuzildi. (3-rasm). Adsorbsiya qiymati konsentratsiyaga to'g'ri proporsional ekanligi kuzatildi.

Moysizlantirilgan sianoglikozidsiz kunjara lardan chorva uchun ozuqa tayyorlashda biologik qo‘shimcha sifatida foydalanish. Sianoglikozidli urug‘larning asosiy tarkibiy qismlari 50 foizgacha moy va oqsil urug‘ massasining taxminan 22 foizgachasini tashkil etadi. Urug‘larda moydan tashqari amigdalin glikozidi, gematin, B vitamini barcha guruhlari uchraydi. Sianoglikozidli urug‘larning oqsil tarkibi uch xil – albumin, globulin va glyutelinlardan tashkil topgan bo‘lib, mavjud barcha aminokislotalardan iborat.

Kunjaralar tarkibidan sianoglikozidlarni ajratib olish uchun, 96 % li etanolda ekstraktsiya qilinib, amigdalin ajratib olindi. Qolgan kukunlarni tarkibi YuSSX yordamida aniqlanganda amigdalin to‘laligicha spirtga o‘tganligini ko‘rsatdi.

8-jadval.

Amigdalin ajratilgandan keyin olingan kukunlarning energiya qiymatini qiyosiy tavsiflari

Oziq moddalar	Achchiq o‘rik		Achchiq bodom		Shaftoli	
	Tarkib, %	Energiya, kJ	Tarkib, %	Energiya, Kj	Tarkib, %	Energiya, kJ
Oqsil	40,3	165,23	38,9	159,49	14,6	59,86
Moy	7,6	70,68	8,4	78,12	8,3	77,19
Uglevod	1,99	8,16	3,28	13,45	1,32	5,41
Jami:	49,89	244,07	50,58	251,06	24,22	142,46

Yuqorida keltirilgan 8-jadvalda tadqiqot natijalari achchiq bodom va achchiq o‘rik kukuni tarkibidagi oqsil miqdori bo‘yicha shaftoli kukunidagi oqsilga nisbatan 2,5-3,0 baravarga yuqoriligini ko‘rsatdi.

Sovuq presslash usulida urug‘lardan moy to‘liq ajralmaydi. Shu sababdan kukunlar tarkibida oz miqdorda moy qoladi. Kukunlarning deyarli hammasida 7,5-8,5 % moy qolib, urug‘larni sovuq presslash usulida moyi ajratilsa to‘yingan yog‘ kislotalari to‘liq saqlanib qoladi va xolesterinni o‘z ichiga olmaydi.

Kunjaralarni spirtli ekstraktsiyadan keyingi holatida bir qism uglevodlar saqlanib qoladi. Kukunlarni ozuqa qiymati 100 g urug‘ga nisbatan ajraladigan energiya miqdori hisoblandi.

Dissertatsiyaning **“Murakkab tarkibli emulsion konsentratlar olish va ularning xossalarini o‘rganish”** deb nomlangan oltinchi bobida insektoakaritsid xossaning namoyon bo‘lishida eng asosiy ta’sir etuvchi modda amigdalin bo‘lgani va bu birikmaning suvdagi eritmalarda gidrolizga uchrashini hisobga olgan holda spirtli ekstrakt asosida emulsiya konsentratlari tayyorlandi. Bunday konsentrlangan emulsiyalarga suv qo‘shish orqali ishchi emulsiyalarga aylantiriladi va ular insektoakaritsid xossasini namoyon qiladi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqot natijalari asosida 3 xil turdagi emulsion konsentratlar va 1 ta kukun tayyorlandi:

-yovvoyi bodom kukunini spirtli ekstrakt asosida olingan **“Kanalarga qarshi insektoakaritsid emulsiya konsentrat (I)”**

-achchiq bodom kukunini spirtli ekstrakt asosida olingan **“Emulsiyalar hosil qilish uchun insektoakaritsid konsentrat (II)”**


-shaftoli kukunini spirtli ekstrakt asosida olingan **“Akaritsid konsentrat (III)”**

-achchiq bodom kukunini spirtli ekstrakti va SFM ishtirokida olingan “Akaritsid tarkib (IV)”


Emulsion konsentrlarni tayyorlash texnologiyasi. Yovvoyi bodom asosida olingan emulsion konsentrat quyidagi tarkibda tayyorlandi: 20-25 g yovvoyi bodomning spirtli quruq ekstraktini 70-63 g orto-ksilolda eritib, ustiga emulgator ABSK 4-5 g va neonolning AF 9-12 yoki AF 9-10 dan 6-7 g qo‘shib tayyorlandi. Bu emulsiya tarkibida suv yo‘q. Shuning uchun bu emulsiya konsentrlangan emulsiya hisoblanadi. Konsentrlangan emulsiyaning tashqi ko‘rinishi och jigarrang. Konsentratga suv qo‘shilganda amigdalin gidrolizi sodir bo‘lib, insektoakaritsidlik xossalari paydo bo‘ladi. Suv qo‘shilmagan konsentratni ikki yilgacha saqlash mumkin.

Konsentrlangan emulsiyalardan 0,5 % dan 5 % gacha bo‘lgan emulsiyalar tayyorlanib, ularning xossalari o‘rganildi.


Yovvoyi bodom (YB), achchiq bodom (AB), shaftoli (Sh) kunjaralarining spirtli ekstrakti asosidagi emulsion konsentratlardan tayyorlangan ishchi (0,5 %, 1 %, 2,5 % va 5 %) emulsiyalarining kolloid kimyoviy xossalardan dispers faza zarralarining gidrodinamik diametri, polidisperslik, diffuziya koeffitsienti va loyqalanish darajasini (NTU) ishchi emulsiya konsentratsiyasiga bog‘liqligi o‘rganilgan. Natijalar 4,5,6 va 7-ramlarda keltirilgan.




4-rasm. YB, AB, Sh asosida olingan emulsion konsentratlardan tayyorlangan ishchi emulsiyalar konsentratsiyalarini dispers faza zarrachalar diametriga bog‘liqligi.



5-rasm. YB, AB, Sh asosida olingan emulsion konsentratlardan tayyorlangan ishchi emulsiyalar konsentratsiyalarini polidisperslik darajasiga bog‘liqligi.



6-rasm. YB, AB, Sh asosida olingan emulsion konsentratlardan tayyorlangan ishchi emulsiyalar konsentratsiyalarini diffuziya koeffitsientiga bog‘liqligi.




7-rasm. YB, AB, Sh asosida olingan emulsion konsentratlardan tayyorlangan ishchi emulsiyalar konsentratsiyalarini loyqalanish darajasiga (NTU) bog‘liqligi.


Emulsiyalarning konsentratsiyalari 0,5 % dan 5 % gacha ortishi bilan dispers faza zarrachalar diametri yiriklashishishi va loyqalanish darajasi ortishiga sabab bo‘lgan. Sistemada emulsiya konsentratsiyani kamayishi bilan dispers faza zarrachalarning o‘lchamini kamayishi dispers tizimning barqaror bo‘lishiga olib keldi. Konsentratsiyalarni ortishi polidisperslikni oshishiga olib keldi va bu diffuziya koeffitsientini kamayishini yuzaga keltirdi.

Yovvoyi bodom spirtli ekstrakti asosidagi emulsiyasini 0,5 %, 1 %, 2,5 % va 5 % konsentratsiyadagi zetta potensial qiymatlari 1,1 mV, 4,3 mV, 16,9 mV va 48 mV ga tengligi aniqlandi. Odatda, zetta potensialning qiymati (± 30 mV dan yuqori) dispersiyadagi zarrachalar orasidagi elektrostatik itarish kuchlarining yetarli ekanligini va tizimning barqarorligini bildiradi. Bu natija emulsiyaning konsentratsiyasi 5 % bo‘lganda zetta potensial qiymati 48 mV tengligi emulsiyani barqaror ekanligini ko‘rsatdi. Yuqorida keltirilgan natijalardan eritma konsentratsiyasi ortishi bilan zetta potensial qiymati ortishi kuzatildi. Demak, yuqori konsentratsiyadagi emulsiyalarning baqarorligi elektrokinetik potensial bilan bog‘langan.


Turli konsentratsiyadagi emulsiyalarning (0,5 %, 1 %, 2,5 % va 5 %) dzeta-potensial qiymatlari, elektr o‘tkazuvchanlik va elektroforetik harakatchanlikni ishchi eritma konsentratsiyasiga bog‘liqligi o‘rganildi. Natijalar 8, 9 va 10-rasmlarda keltirilgan.



8-rasm. YB, AB, Sh asosida olingan emulsion konsentratlardan tayyorlangan ishchi emulsiyalar konsentratsiyalarini elektrokinetik potensial qiymatlariga bog‘liqligi.



9-rasm. Elektr o‘tkazuvchanlikni emulsion konsentratlardan tayyorlangan ishchi emulsiyalar konsentratsiyalariga bog‘liqligi.



10-rasm. Zarrachalarning elektr maydon ta’sirida harakatlanish tezligini ishchi emulsiyalar konsentratsiyasiga bog‘liqligi.

Emulsiyalarning konsentratsiyasi oshishi bilan zaryadli ionlarning miqdori ortib, elektr o‘tkazuvchanlik oshdi va zarrachalarning yuzasidagi zaryadlar ortishi zeta-potensialning oshishiga olib keldi. Zeta-potensial yuqoriligi zarrachalarning elektr maydon ta’sirida tezroq harakat qilishiga, bu elektroforetik harakatchanlikni ortishiga sababchi bo‘lgan. Emulsiyalarning konsentratsiyasi oshishi elektr o‘tkazuvchanlik, elektroforetik harakatchanlik, va zeta-potensial o‘rtasida bog‘liqlik mavjudligini va olingan natijalar emulsiyalarning kolloid barqarorligini ortganligini ko‘rsatdi.

Barcha emulsiya konsentratlarining ishchi emulsiyalarini termik va mexanik barqarorligini baholashda, emulsiyalarni konsentratsiyalari 0,5 va 1,0 % bo‘lganida

sentrifuganing 1500 aylanish tezligida ajralish vaqti 60 daqiqani tashkil qildi. Emulsiyalarning konsentratsiyalari 2.5 % bo‘lganida o‘rtacha 50 daqiqa va 5 % bo‘lganida o‘rtacha 45 daqiqani tashkil etdi. Emulsiyalarning konsentratsiyalari 0.5, 1,0 va 2.5 % bo‘lganida 50° C haroratda qavatlanish vaqti 40-60 daqiqadan keyin sodir bo‘ldi, emulsiya konsentratsiyasi 5 % bo‘lganda bu ko‘rsatkich 30-35 daqiqani tashkil qildi. Olingan natijalar 9-jadvalda keltirilgan.

9-jadval.

Emulsiya konsentratlarining ishchi emulsiyalarini sifat ko‘rsatkichlari

Sifat ko‘rsatkichlar	Emulsiyalar hosil qilish uchun insektoakaritsid konsentrat				Kanalarga qarshi insektoakaritsid emulsiya konsentrat.				Akarisid konsentrat.			
	Konsentrat ishchi eritmalarini konsentratsiyasi, %											
	0,5	1,0	2,5	5,0	0,5	1,0	2,5	5,0	0,5	1,0	2,5	5,0
Mexanik barqarorlik*	60	60	60	50	60	60	50	45	60	60	50	45
Termik barqarorlik**	60	60	40	35	60	60	40	30	60	50	40	30

*Sentrifugani ajratish vaqti 1500 rpm; **Qavatlanish vaqti, 50°C / min;

“Emulsiyalar hosil qilish uchun insektoakaritsid konsentrat” eritmalarining kolloid kimyoviy xossalarini tadqiq etish. Bunday konsentrat olish uchun quyidagi texnoliya olindi. T-2 emulgatorini harorat ta’sirida suyuqlantirib, unga achchiq bodomning spirtli ekstrakti va distillangan yog‘ kislotasining natriyli tuzi (DYoK-Na) tuzi qo‘shildi. So‘ngra olingan massa kungaboqar moyida dispergirlandi. Tanlangan tarkib: ta’sir etuvchi modda sifatida achchiq bodomning spirtli ekstraktidan 10 g; emulgator T-2 - 10 g; 1 g DYoK-Na tuzi bo‘lgan tarkib; moy sifatida kungaboqar moyi – 100 g;

